

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA REFLEKSIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNING O‘ZBEKISTON–2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Olloberdiyeva Mehriniso Doniyor qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail doniyorovnamehrinso@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mingnorov Abduxoliq Toshmirzayevich

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fanlar doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqola bo‘lajak pedagoglarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini yoritadi hamda uning O‘zbekiston–2030 strategiyasi doirasida ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Refleksiya pedagog faoliyatida o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqilib, konstruktivizm, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va metakognitiv nazariya bilan bog‘lanadi. Strategiya doirasida ta’lim tizimining modernizatsiyasi, pedagog malakasini oshirish va innovatsion yondashuvlar refleksiv kompetensiyaning zarurligini yanada kuchaytirishi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari refleksiv qobiliyatga ega pedagoglarning kasbiy o‘sishi, ijodiy fikrlashi va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: refleksiv qobiliyat, refleksiya, bo‘lajak pedagog, pedagogik kompetensiya, nazariy-metodologik asoslar, ta’lim sifati, O‘zbekiston–2030 strategiyasi, pedagogik innovatsiya, metakognitiv rivojlanish, pedagogik tahlil, kasbiy o‘sish, konstruktiv yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiv madaniyat, ta’lim jarayoni.

Аннотация. В статье освещаются теоретические и методологические основы развития рефлексивных навыков у будущих учителей и раскрывается их важность для повышения качества образования в рамках стратегии «Узбекистан-2030». Рефлексия рассматривается как процесс самоанализа, оценки и совершенствования педагогической деятельности и связана с конструктивизмом, личностно-ориентированным образованием и метакогнитивной теорией. Подчеркивается, что в рамках стратегии модернизация системы образования, подготовка учителей и инновационные подходы еще больше усиливают потребность в рефлексивной компетенции. Результаты исследования показывают, что учителя, обладающие рефлексивными навыками, оказывают положительное влияние на свой профессиональный рост, творческое мышление и качество образования.

Ключевые слова: рефлексивная способность, рефлексия, будущий учитель, педагогическая компетенция, теоретические и методологические основы, качество образования, стратегия «Узбекистан-2030», педагогические инновации, метакогнитивное развитие, педагогический анализ, профессиональный рост, конструктивный подход, личностно-ориентированное образование, рефлексивная культура, образовательный процесс.

Annotation. *The article highlights the theoretical and methodological foundations of developing reflective skills in future teachers and reveals its importance in improving the quality of education within the framework of the Uzbekistan-2030 strategy. Reflection is considered as a process of self-analysis, evaluation and improvement in pedagogical activity and is associated with constructivism, person-centered education and metacognitive theory. It is emphasized that within the framework of the strategy, the modernization of the education system, teacher training and innovative approaches further strengthen the need for reflective competence. The results of the study show that teachers with reflective skills have a positive impact on their professional growth, creative thinking and the quality of education.*

Key words: *reflexive ability, reflection, future teacher, pedagogical competence, theoretical and methodological foundations, quality of education, Uzbekistan-2030 strategy, pedagogical innovation, metacognitive development, pedagogical analysis, professional growth, constructive approach, person-centered education, reflexive culture, educational process.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogdan nafaqat bilim berishni, balki o'z faoliyatini tahlil qila oladigan, o'zgaruvchan ta'lim muhiti talablariga moslashadigan, yangilik yaratishga intiladigan kasbiy shaxs bo'lishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan bo'lajak pedagoqlarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Refleksiya o'qituvchining o'z ilmiy-pedagogik faoliyatini anglash, baholash, tahlil qilish, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish, kelgusidagi ish rejasini shakllantirish va kasbiy o'sish yo'nalishlarini belgilashga yordam beradigan psixologik hamda metodik jarayondir. Hozirgi kunda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv dasturlarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida yangilash, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston–2030 strategiyasi doirasida ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, pedagoqlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyasini kuchaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish vazifalari belgilangan. Mazkur strategik maqsadlarga erishishda bo'lajak pedagoqlarning refleksiv madaniyati va refleksiv kompetensiyasi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv bo'lajak o'qituvchiga ta'lim jarayonini har tomonlama tushunish, o'z professional o'sishiga tanqidiy nazar bilan qarash, o'z bilimlari, tajribasi va pedagogik mahoratini baholash imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat nazariy jihatdan ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham ta'lim sifatini oshirishning funksional vositasi hisoblanadi. Refleksiya kuchli bo'lgan pedagog o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini chuqur anglaydi, ta'lim jarayonini individual va differensial yondashuvlar asosida tashkil etadi, har bir darsni tahlil qiladi va doimiy takomillashtirib boradi. Shu bois, bo'lajak pedagoqlarda refleksiv qobiliyatni shakllantirish nafaqat kasbiy muvaffaqiyat garovi, balki strategik maqsadlarga erishishning ilmiy-metodik asoslaridan biridir. Mazkur tadqiqot ana shu jarayonning

nazariy asoslarini ochib berish, metodologik yo‘nalishlarini aniqlash va uning ta‘lim sifatiga ta‘sirini yoritishga qaratilgan.

Refleksiv qobiliyat bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishida asosiy ichki harakatlantiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Mazkur qobiliyat o‘qituvchi shaxsining o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash, xatolarni anglash, yechimlar topish, o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda kasbiy takomillashuvga erishish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Refleksiya jarayoni o‘qituvchini ongli ravishda o‘qitish strategiyalarini tanlashga, metodlar samaradorligini aniqlashga, o‘quvchining psixologik holatini inobatga olishga va o‘qitish jarayonini doimiy takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Nazariy manbalarda refleksiv yondashuv shaxsning ichki tajribalariga tayanib, o‘z-o‘ziga savol bera olishi, o‘z faoliyatini kuzatishi, ruhiy va intellektual holatni baholay olishi, o‘z ustida mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratadi. Psixologik jihatdan refleksiv qobiliyat o‘z fikrlash jarayonlarini nazorat qilish va muayyan vaziyatlarda eng to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasining shakllanishini bildiradi. Metodologik nuqtayi nazardan esa refleksiya o‘qituvchi faoliyatining ajralmas sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, o‘qitish jarayonida tahliliy fikrlashni hamda shaxsiy maqsadlar bilan ta‘lim natijalarini bog‘lash imkonini beradi. Bo‘lajak pedagoglarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish jarayoni o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon pedagogik ta‘lim mazmunini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlarida reflektiv texnologiyalar ulushini oshirish, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv loyihalarini joriy etish, dars tahlilining yangi metodlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Refleksiv texnologiyalar, masalan, pedagogik esse, kundalik, analitik suhbat, kases tahlillari, loyiha faoliyati va ta‘limiy tadqiqotlar, talabaning o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bunday yondashuv nafaqat o‘qituvchi sifatida, balki shaxs sifatida ham o‘shishga yordam beradi. Pedagog tayyorlash jarayonida refleksiya rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari konstruktivizm, faoliyat yondashuvi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, metakognitiv rivojlanish nazariyalari va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar bilan mustahkamlanadi. Konstruktiv yondashuv ta‘lim jarayonida bilimning tayyor shaklda berilmasligini, balki o‘rganilayotgan tajriba asosida hosil bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu jarayon refleksiyani zarur psixologik jarayon sifatida baholaydi. Metakognitiv yondashuv esa o‘z fikrlash jarayonini kuzatish, xatti-harakatlarni rejalash va tahlil qilish orqali nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. O‘zbekiston–2030 strategiyasi doirasida ta‘lim tizimini modernizatsiya va xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘lajak pedagoglardan yuqori refleksiv madaniyatni talab qiladi. Strategiyada ta‘lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning malakasini kuchaytirish, xalqaro tajribaga tayangan holda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning

eng samarali yo‘llaridan biri refleksiv qobiliyatni rivojlantirish orqali o‘qituvchilarni o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarashga o‘rgatishdir. Bu ta‘lim sifatini oshirishga, o‘quv jarayonini individuallashtirishga, tarbiyaviy samaradorlikni kuchaytirishga, ta‘lim muassasalarida ijodiy muhit yaratishga xizmat qiladi. 2030 yilga borib ta‘lim tizimi yuqori raqobatbardosh kadrlar bilan ta‘minlanishi, innovatsiyaga asoslangan pedagogik metodlar kengaytirilishi, raqamli ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish kuchaytirilishi kutilmoqda. Bunday vaziyatda refleksiya pedagogning o‘zini yangilashga, texnologik yangiliklarga moslashishga, o‘quvchi talablarini anglashga yordam beruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiv qobiliyatga ega bo‘lgan pedagog ta‘limdagi o‘zgarishlarga mos ravishda yangicha metodlarni mustaqil topa oladi, ularni tahlil qiladi va natijani ko‘ra oladi. Bu esa davlat strategiyasida belgilangandek oliy ta‘lim muassasalarining mas‘uliyatini, ta‘lim sifati ko‘rsatkichlarini sezilarli oshiradi. Demak, refleksiv qobiliyatni rivojlantirish nafaqat bo‘lajak pedagogning kasbiy muvaffaqiyati uchun, balki O‘zbekiston–2030 strategiyasining amalga oshirilishi uchun ham zarurdir. Bunday yondashuv ta‘lim jarayonini real ehtiyojlar asosida takomillashtirish, sifatni kafolatlash, inson kapitalini oshirish, pedagog kasbining nufuzini ko‘tarish va zamonaviy fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan refleksiya O‘zbekistonning kelajak maqsadlariga eltuvchi kuchli intellektual manba sifatida baholanadi.

XULOSA

Bo‘lajak pedagoglarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish nafaqat shaxsiy kasbiy o‘rishni ta‘minlaydi, balki ta‘lim sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini ongli ravishda baholashi, dars jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashi, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishi hamda yangi metodlarni ishlab chiqishi uchun zarur psixologik va metodik asos yaratadi. Bu jarayon o‘qituvchini passiv ijrochidan faol, ijodiy va yangilanuvchan kasbiy shaxsga aylantiradi. O‘zbekiston–2030 strategiyasi doirasida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifalari refleksiv kompetensiyaning ahamiyatini yanada oshiradi. Bo‘lajak pedagoglarda refleksiv madaniyatni shakllantirish strategik maqsadlarga erishishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki refleksiya kuchli bo‘lgan pedagog ta‘lim jarayonini chuqur tahlil qiladi, uni o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtiradi, darslarni innovatsion metodlar asosida tashkil etadi va natijadorlikka erishadi.

Shu asosda aytish mumkinki, refleksiv yondashuv kasbiy tayyorgarlik jarayonining integral unsuri bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, analitik

tahlil va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatning samaradorligini kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, reflektiv qobiliyatni shakllantirish oliy ta’lim muassasalarida maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida yo‘lga qo‘yilganda, kelajakdagi o‘qituvchilar kompetensiyasi sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva, N. (2018). Reflektiv kompetensiya va pedagogik mahoratni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Asqarova, M. (2020). Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning reflektiv madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. O‘zbekiston pedagogika jurnali, №3, 41–48.
3. Karimova, D. (2019). Kasbiy refleksiyaning psixologik asoslari va talabalarda reflektiv o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Psixologiya va ta’lim, №2, 57–64.
4. Kattabekov, U. & Rasulova, M. (2021). Pedagogik ta’limda metakognitiv yondashuvning ahamiyati va refleksiya jarayoniga ta’siri. Ta’lim innovatsiyalari jurnali, №4, 22–29.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.
6. Turg‘unova, Z. (2017). Pedagog tayyorlash tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari va reflektiv ko‘nikmalarni rivojlantirish. Oliy ta’lim jurnali, №6, 19–26.
7. Yunusova, S. (2022). Ta’lim jarayonida refleksiyaning o‘quvchilar faoliyatiga ta’siri va o‘qituvchi mahorati bilan bog‘liqligi. Xalq ta’limi, №5, 73–79.
8. Zokirov, N. (2016). Konstruktivizm asosida pedagogik fikrlash va reflektiv tahlilning o‘rni. Toshkent: Ijod press.